

## VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA DEVIANT XULQ-ATVORNI OLDINI OLISHNING DOLZARB PSIXOLOGIK MASALALARI

*Matasimova Farzona Raxmatillaevna*

*Toshkent viloyati Angren shahar*

*MMTBga qarashli 25-umumta'lim maktabi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar orasida deviant xulq-atvorning yuzaga kelish sabablari, uning psixologik va ijtimoiy omillari hamda bunday holatlarning oldini olishning dolzarb masalalari yoritiladi. Shuningdek, profilaktika ishlarini samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** voyaga yetmaganlar, deviant xulq-atvor, profilaktika, psixologiya, ijtimoiy muhit, tarbiya, moslashuv.

### KIRISH

Voyaga yetmaganlar orasida deviantlik holatlarining ortib borishi bugungi kunda jamiyat uchun jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Deviant xulq-atvor — bu jamiyatda qabul qilingan me'yor va qoidalarga zid bo'lgan xatti-harakatlar bo'lib, u o'smirlar orasida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

O'smirlik davri psixologik jihatdan murakkab bosqich bo'lib, bu davrda shaxsning o'zini anglash jarayoni faol kechadi. Aynan shu davrda noto'g'ri yo'naltirish yoki e'tibor yetishmasligi deviant xulq-atvor shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Deviantlikning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

— **Oilaviy muhit.** Ota-onaning e'tiborsizligi, oiladagi nizolar, zo'ravonlik yoki noto'g'ri tarbiya usullari o'smirning xulqiga salbiy ta'sir qiladi.

— **Ijtimoiy muhit.** Salbiy do'stlar davrasi, nazoratning yetishmasligi va noto'g'ri muhit o'smirni deviant xulqqa undaydi.

— **Psixologik omillar.** O'ziga ishonchsizlik, emotsional zo'riqish, ichki ziddiyatlar va e'tibor yetishmasligi o'smirni noto'g'ri xatti-harakatlarga olib keladi.

— **Ta'lim muhitidagi muammolar.** O'qishga qiziqmaslik, muvaffaqiyatsizlik va o'qituvchilar bilan nizolar deviantlikni kuchaytiradi.

Voyaga yetmaganlar orasida deviantlikning oldini olishda eng muhim yo'nalish — bu profilaktika ishlari hisoblanadi. Profilaktika erta bosqichda olib borilsa, muammoning chuqurlashishining oldini olish mumkin.

Birinchi navbatda, psixologik diagnostika o'tkazish zarur. Bu orqali xavf guruhiga kiruvchi o'smirlar aniqlanadi va ular bilan individual ishlash yo'lga qo'yiladi.

Individual suhbatlar va maslahatlar o'smirning ichki dunyosini tushunishga yordam beradi. Psixolog bilan ishonchli muloqot o'smirni ijobiy yo'nalishga o'zgartiradi.

Guruhiy treninglar va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish mashg'ulotlari ham samarali hisoblanadi. Bu orqali o'smirlar muloqot qilish, nizolarni hal etish va o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Ota-onalar bilan ishlash alohida ahamiyatga ega. Ularga farzand bilan to'g'ri munosabat o'rnatish, nazorat va erkinlik muvozanatini saqlash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish ham muhim omildir. Sport, san'at va turli to'garaklar o'smirlarni salbiy muhitdan uzoqlashtiradi. Ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhit yaratish, o'quvchilarda ijobiy qadriyatlarni shakllantirish va ularni qo'llab-quvvatlash deviantlikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Insoniyat paydo bo'lganidan beri eng dolzarb va qiyin masalalardan biri bu - yoshlarni tarbiyalash va ularning hayotda o'z o'rnini topishlariga yordam berishdir. Barcha mutafakkirlar, allomalar Vatan taraqqiyoti va jamiyat rivoji bevosita yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlashgan. Bu qiyin vazifani hal qilish uchun ota-onalar turli xildagi usullarni qo'llab keladilar. Qayerda tarbiya masalasini ta'lim bilan, milliy qadriyat, an'analar, mentalitet bilan uzviy bog'liqlikda hal etilgan bo'lsa, o'sha joyda rivojlanish, taraqqiyot bo'lgan. Yoshlar ta'lim-tarbiyasiga e'tiborsizlik qilingan joyda esa inqirozlar, milliy o'pirilishlar sodir bo'lavergan.

So'nggi yillarda jamiyatimizda sodir bo'layotgan jinoyatlarning katta qismi yoshlar va o'smirlar tomonidan sodir etilayotgani sababli insonlar orasida deviant xulq-atvor

muammosiga qiziqish obyektiv ravishda oshdi. Bu esa bunday xulq-atvor shakllanishining turli xil sabablarini o'rganishni taqozo etdi.

Deviantlik bu - har qanday xulq-atvor va odob-axloq normalaridan chetga chiqish hisoblanadi. Deviantlik ko'pincha o'smirlar va o'spirinlarda kuzatiladi. Xulqatvordagi bunday og'ishlarning asosiy sababi psixologik siljish hisoblanadi. Bunday psixologik og'ishlar tanqidlar, janjallar, asabiy buzilishlar, huquqbuzarlik kabi holatlarni keltirib chiqaradi.

Ayni vaqtda, ayrim ekspertlar hozirgi vaqtda deviant xulq-atvor guruhiga ko'proq moddiy jihatdan o'ziga to'q oilalarning bolalari va o'smirlari tushib qolishiga asosiy e'tiborni qaratishadi. O'ziga to'q oila bolalari ko'pincha otaonasining erka farzandi hisoblanadi. Yoshlik paytlarida ularning istagini oila a'zolari so'ssiz bajarishadi. Buning natijasida bolada "Men nimani xohlasam, otam yoki onam shuni bajarishga majburdirlar", degan noto'g'ri qarashlar shakllanadi. Ayniqsa, o'ziga to'q oila bolalari o'zlaridan mavqeyi pastroq bo'lgan oila farzandlarini kamsitadi, ularga ruhiy zarbalar beradi. Bu ham deviantlikning bir ko'rinishidir. Umuman olganda, bugungi kunda jamiyatning qaysidir qatlamlaridan birini deviant xulq-atvordan himoyalangan deb hisoblab bo'lmaydi. Har bir o'smir atrof-muhitda turli xil ta'sir va bog'liqliklarga duch keladi. Moddiy yetuklik, ota-onalarning yuqori ijtimoiy mavqeyi bolalar va o'smirlarning ijtimoiy normalarga rioya qilishi uchun yetarli kafil bo'la olmaydi.

Ijtimoiy normalar jamiyat xulq-atvorining ajralmas qismidir. Ijtimoiy normalar shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtiruvchi qoidalar majmuidir. Agar o'smir ko'chadagi o'z tengdoshlari tomonidan tuzilgan turli norasmiy guruhlarga qo'shib qolsa va ular bilan birga har xil faoliyatlar olib borsa, bunday hollarda ham deviantlik sodir bo'lishi ehtimoli katta. Norasmiy guruh a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan janjallar va kelishmovchiliklar ham psixologik buzilishlarni keltirib chiqaradi. O'smir mushtlashuvchilarga qo'shib qolsa, unda zo'ravonlik holatlari ko'zga tashlanadi. O'smir yoshidagi bolalarda salbiy manfaatlar, kattalarning xatti-harakatlariga tanqid qilish kabi holatlar ro'y beradi. Bundan tashqari, bu yosh davrdagi bolalar o'rtasidagi giyohvand moddalar va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga majburlash holatlari ham yuz beradi.

Agar o‘smir bu ishlarni qilishdan bosh tortsa, do‘stlari tomonidan turli kesatq va kamsitishlarga uchraydi. Bunday kamsitish va xorlikni boshdan kechirgan bolalarda asabiy zo‘riqishlar sodir bo‘ladi. Asabiy buzilishlarni deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omillardan biri deb hisoblash mumkin. Bunday paytlarda ota-onalardan xushyorlik talab qilinadi. Shuning uchun, o‘smirlarda kuzatiladigan deviant xattiharakatlarning dastlabki belgilaridayoq o‘qituvchi va ota-onalar tomonidan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, oilada sog‘lom muhitni ta‘minlash kerak.

O‘smir xulq-atvorida spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste‘mol qilishga, qarshi jins vakiliga bo‘lgan qiziqishlar birmuncha oshadi. Qiziqishlarning kuchliligi shu ishlarni amalga oshirish xohishini keltirib chiqaradi. Bunday hollar ham, shubhasiz, deviantlikning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Aytaylik, o‘smirning sevgisi rad etilsa, unda mahzunlik, hayotga bo‘lgan qiziqish, asabiylik, ishtahasizlik, ruhiy buzilish, suidsidga moyillik kabi holatlar ro‘y beradi. Suidsida esa, deviant xulq-atvorning yaqqol namunasi hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy dunyoda internet, virtual dunyo, axborot oqimi tahlili, uning sotsiologik jihatlarini va yoshlar muammolarini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, globallashtirish jarayonida ma‘naviy hayotimizni izdan chiqaruvchi jiddiy xavflarni inobatga olgan holda ularning oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish zarur. Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘zo‘zini o‘ldirish (suidsida) bilan ijtimoiy illatlarning yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlarga ko‘ra o‘ziga xos jihatlarga ega. Uzoq davom etadigan turli xil zararli odatlar, doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof muhitdan qoniqmaslik, uydagi turli-tuman tushunmovchiliklar, bularning barchasi o‘smirning ruhiyatiga shikast yetkazadi. Buning natijasida o‘smir mavjud noxush vaziyatlarni yaxshi tomonga o‘zgartirishga harakat qiladi. Bu jihatdan, kamchiliklar, jumladan nizolar rivojlanishga o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazadi. Bunday hollarda ijtimoiy pedagoglar bo‘yniga katta mas‘uliyatni yuklaydi. Ijtimoiy pedagog o‘smirdagi deviansiyaning ilk ko‘rinishlarini sezgan zahoti uni bartaraf etish yo‘llarini izlashi lozim. Bu esa, pedagog oldiga tarbiyaning yangi metodlarini izlab topishni ko‘ndalang qo‘yadi.

Profilaktika bu - o‘smir xulq-atvoridagi ijtimoiy normalardan og‘ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy tadbirlarning majmui.

Profilaktika so‘zining o‘zi turli xil salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarning oldini olishdir. O‘smirlardagi salbiy xulq-atvor profilaktikasi va korreksiyasini bosqichmabosqich o‘rganilganida o‘smirlardagi salbiy xulq-atvorning faqat o‘ziga xos, fenomenli jihatlari namoyon bo‘ladi. O‘smirlarda salbiy xulq-atvorning paydo bo‘lishi murakkab jarayon hisoblanib, u o‘smirlarning ehtiyojlari, qadriyatlari, hissiyotlari va shakllanayotgan ijtimoiy muhit ta‘sirida rivojlanib boradi.

Deviant xulq-atvorning eng yaxshi profilaktikasi bu - tarbiyaviy vositalar, shakl va usullarni yaxshilab o‘rganib, so‘ngra aniq belgilab olgan holda voyaga o‘smirlar ongiga maqsadli ta‘sir ko‘rsatishdir.

Profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirayotgan ijtimoiy pedagog quyidagi qoidalarga amal qiladi:

1. Ijtimoiy normalarni o‘zlashtirish bevosita shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida amalga oshadi. Qadriyatlar, urf-odat va an‘analarni o‘zlashtirmay turib hech qaysi inson jamiyatning to‘laqonli a‘zosi bo‘la olmaydi.

2. Ijtimoiy madaniy normalar muxolifi bolaning ijtimoiy-madaniy va pedagogik qarovsizligi hisoblanib, u nafaqat bola rivojlanishining g‘ayrinormal alomati, balki uning zimmasiga anomal ijtimoiy holatlarni yuklashning natijasi o‘laroq qaraladi.

3. Bolalar qarovsizligining profilaktikasi nafaqat mavhum ijtimoiy-madaniy normadan, balki muayyan sharoitda yashashga majbur bo‘lgan bolalardan kelib chiqishi lozim

4. Bola rehabilitatsiyasi faoliyat subyekt, ijtimoiy subyekt va shaxs darajasida amalga oshirilishi lozim

Ijtimoiy og‘ishlarning turli sabab va holatlardan kelib chiqishini inobatga olgan holda, profilaktik chora-tadbirlarning bir nechta turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- neytrallashtiruvchi;
- o‘rmini to‘ldiruvchi;

- ijtimoiy holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillardan ogohlantiruvchi;
- ushbu holatlarni bartaraf qiluvchi;
- o'tkaziladigan profilaktik ishlarni nazorat qiluvchi,
- deviant xulq atvoriga ega bolalarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiyasi.

Ijtimoiy pedagoglarning dezaptatsiya bo'lgan o'smirlar bilan ishlashining boshqa bir metodi ularning rehabilitatsiyasi hisoblanadi. Rehabilitatsiyaga keng miqyosli vazifalar, eng sodda ko'nikmalardan tortib odamlarning jamiyatda to'liq integratsiyalashuvigacha bo'lgan turli masalalarni hal qilishga qaratilgan choratadbirlar tizimi sifatida qarash mumkin.

Rehabilitatsiya so'zining lug'aviy ma'nosi lotincha "rehabilitatio" bo'lib, "moslashish" ma'nosida keladi. Rehabilitatsiya jarayonda o'rni to'ldiruvchi mexanizm hisoblanib, mavjud nuqsonni yengib o'tish uchun qo'llanadi. Adoptatsiya so'zining lug'aviy ma'nosi esa lotincha "adaptatio" hisoblanib, moslashuv degani. Organizmning turli yashash sharoitlariga moslashishi.

Ijtimoiy pedagoglarning o'smir bilan profilaktika ishlari olib borishiga bir nechta yondashuvlar mavjud:

- Informatsion yondashuv - voyaga yetmagan shaxslar davlat va jamiyat tomonidan axloqiy normalarni bajarishga taqdim etilgan huquq va majburiyatlardan boxabar qilinadilar.

- Ijtimoiy-profilaktik yondashuv - bunda asosiy maqsad salbiy oqibatlarga olib keluvchi omillarni aniqlash, bartaraf etish va neytrallashtirish sanaladi. Bu yondashuvning mohiyati davlat, jamiyat, muayyan ijtimoiy-pedagogik muassasa, ijtimoiy pedagog tomonidan deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi sabab va omillarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliyhuquqiy va tarbiyaviy chora-tadbirlarni tashkil etishdan iborat.

- Tibbiy-biologik yondashuv - bu yondashuvning mohiyati ijtimoiy normalardan ehtimoliy og'ishlarni turli ruhiy anomaliyalar bilan aziyat

chekuvchi shaxslarga nisbatan davlat profilaktik xarakterdagi choralar vositasida oldini olish hisoblanadi.

•Ijtimoiy-pedagogik yondashuv - deviant xulq-atvorga ega o'smirlarning ijobiy hislatlarini tiklashga xizmat qiladi va ana shunday vaziyatlarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy rehabilitatsiya ma'lum bir obyektlarda amalga oshiriladi. Ushbu obyektlar quyidagilardir:

1. Ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar.

Bunday bolalar tavakkal guruhlarning keng tarqalgan toifasidan biri bo'lib, ularning qiyin tarbiyalanishi turli xil ruhiy-pedagogik sabablar bilan izohlanadi. Ijtimoiy va pedagogik qarovsizlikning asosiy belgilari deb yetakchilik faoliyatidagi kamchiliklar, xulq-atvorda salbiy tomonga og'ishlar, ijtimoiy adaptatsiya sababli yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aytib o'tsak bo'ladi. Bu o'smirlar faoliyatning to'laqonli subyekt bo'lmaganliklari uchun ularga asosiy yordamni pedagoglar, psixologlar va ota-onalar ko'rsatishlari mumkin.

2. Voyaga yetmagan yetim bolalar, huquqbuzarlar, xulq-atvorida salbiy tomonga og'ish bo'lgan bolalar.

Bu toifaga, avvalambor, ijtimoiy adaptatsiyada, ijtimoiy rollarni egallashda yordam ko'rsatish lozim. Rehabilitatsiyaning asosiy subyekt i jtimoiy pedagog bo'lib, u yuqorida sanab o'tilgan funksiyalarni bajara olishi, o'smirlar va bolalarga psixologik yordam ko'rsata olishi lozim.

3. Psixosomatik va nerv-psixologik sog'ligi buzilgan va funksional og'ishlarga ega bolalar.

- a) surunkali somatik kasalliklar;
- b) funksional buzilishlar;
- c) asab-ruhiy xastaliklar;
- d) aqliy qoloqlik;
- e) nogironlik.

Bu toifa bolalar, eng avvalo, tibbiy va ruhiy rehabilitatsiyaga ehtiyoj sezadilar. Uning subyektlari shifokorlar va psixologlar hisoblanib, ular, shuningdek, pedagog va ijtimoiy ishchilar bilan hamkorlikda kompleks ravishda rehabilitatsiya o‘tkazishlari ham mumkin.

Reabilitatsion yordam xarakteri quyidagilardan iboratdir:

- kechikkan yordamdan profilaktik yordamga o‘tish;
- jazolovchi yordamdan ayovchi yordamga o‘tish;
- tasodifiy yordamdan kafolatlangan va kompleks yordamga o‘tish;
- anonim yordamdan shaxsiy yordamga o‘tish.<sup>[5]</sup>

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar orasida deviantlik holatlarining oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi. Psixolog, o‘qituvchi, ota-ona va jamiyat hamkorligi orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Sh.N.Po‘latov. Robindranath Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatiga qo‘shgan hissasi. “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020, 21-22 P.
2. Sh.S.Jo‘rayev. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt saodat masalasi. Academic research in Educational Science, 2 (Special issue 1), 395-396 P.
3. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. Экономика и социум, (3-2), 12-14.
4. D. (2019). Eastern thinkers about the phenomena of self-awareness. Journal of Critical Reviews, 7(2), 2020.
5. Ziyonet